

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AQLIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK O'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.

O'ktamova Saodat

ADPI, magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy faolligini rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim talablari asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka va muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltiruvchi metodlar yoritilgan. Didaktik o'yinlarning o'quv jarayoniga ta'siri, ularning o'quvchilar tafakkuri, tezkorligi, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi afzalliklari ilmiy asoslangan. Shuningdek, darslarda AKT vositalari hamda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi yoritilib, boshlang'ich sinf o'qituvchisining darsni to'g'ri tashkil etishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, aqliy faollik, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, tafakkur, AKT, innovatsion yondashuv.

Аннотация: В статье анализируется роль и педагогическое значение дидактических игр в развитии умственной активности учащихся начальных классов. Рассматриваются современные методы, направленные на формирование у школьников самостоятельного мышления, творческого подхода и способности решать проблемные ситуации. Научно обосновано влияние дидактических игр на развитие мышления, быстроты реакции, коммуникативной культуры и навыков командной работы учащихся. Кроме того, раскрывается эффективность применения ИКТ и интерактивных методов, а также роль учителя начальных классов в правильной организации учебного процесса.

Ключевые слова: дидактические игры, умственная активность, начальное образование, интерактивные методы, мышление, ИКТ, инновационный подход.

Annotation: This article analyzes the role and pedagogical importance of didactic games in developing the intellectual activity of primary school students. It highlights modern teaching methods aimed at fostering independent thinking, creativity, and problem-solving skills among young learners. The study scientifically substantiates the positive impact of didactic games on students' thinking abilities, reaction speed, communication culture, and teamwork skills. Additionally, the effectiveness of using ICT tools and interactive methods in lessons is discussed, emphasizing the crucial role of primary school teachers in organizing an engaging and productive learning process.

Keywords: didactic games, intellectual activity, primary education, interactive methods, thinking, ICT, innovative approach.



KIRISH

Yangi O'zbekistonda yangicha yondashuvlar, yangicha bilim bilan o'quvchilarning ayniqsa, ta'lim tizimining poydevori bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim tizimida mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va tafakkurga ega shaxsni tarbiyalash bugungi kunning masalasidir.

Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisining, eng avvalo, maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida aqliy faollikni shakllantirish va ularni bunga qiziqitira olish hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini aqliy faolligini, har sohada ijodkorligini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyatli bo'lib kelmoqda.

Texnologiyalari rivojlanayotgan paytda bugungi kun qahramoni - o'qituvchisi turli hil usullaridan foydalangan holda dars jarayonlarini qiziqarli, unumli, samarali va tafakkurda yaxshi joy oladigan holatda bo'lishi darkor. Avvalo, o'qituvchilar har bir o'quvchisining individual xususiyatlari hamda butun bir sinf ya'ni jamoaning holatiga qarab o'z usulini tanlaydi.

O'quvchilarning tafakkur salohiyati, diqqat-e'tibori va mustaqil fikrlash qobiliyatlari aynan shu bosqichda ya'ni ta'lim olish jarayonida rivojlanadi, Dars jarayonida o'quvchilarga ko'proq ma'lumot yetgazib berishlik uchun metodlarni to'g'ri tanlovi muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Talim sohasida o'quvchilarning aqliy faolligini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quv jarayonini qiziqarli, faol va samarali tashkil etish uchun zarur hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy faolligini rivojlantirish masalasi ko'plab mahalliy va xalqaro tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Ko'plab adabiyotlardan ma'lumki, didaktik o'yinlar o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatni tahlil qilishi va yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojining uyg'onishi bilan chambarchas bog'liqdir.

G.Qodirova (2021) o'z tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur rivojida didaktik o'yinlar, tasniflash, solishtirish, tahlil qilish kabi amaliy mashqlarning o'zni muhim ekanini ta'kidlaydi. A.Hasanov (2020) esa pedagogik texnologiyalarning o'quvchini markazga qo'ygan yondashuvlar orqali aqliy faollikni kuchaytirishini asoslab beradi.

Innovatsion metodlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar (N.Jo'rayev, 2019) interfaol usullar, muammoli ta'lim va guruhli ishlash o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishini amaliy ko'rsatib bergan. N.Abdullayeva (2022, 2023) ishlarida kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda matematik va geometrik masalalarning ahamiyati, shuningdek, zamonaviy interpretativ (germenevtik) yondashuvlar samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.





Muhokama. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun didaktik o'yinlardan foydalanish dars jarayonini qiziqarli tashkil etibgina qolmasdan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash tafakkurini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining faol shakli hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarga dars jarayonlari o'yinlar orqali tashkil etish tabiatiga xos bo'lgan o'yin faoliyati ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarini aqliy faolligini rivojlantiribla qolmasdan ulardagi tezkorlik, topqirlik, chaqqonlik, jamoa bilan ishlashni ham o'rgatadi.

Ularni rivojlantirishda dars jarayonining intefaolligi, o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan rag'batlantiruvchi yondashuvi, topshiriqlarning yosh xususiyatlariga mosligi, o'yinli, muammoli va ijodiy vaziyatlar yaratish kabi omillar muhimdir.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy faolligini rivojlantirish uchun didaktik o'yinlardan samarali foydalanish ularning ijodiy tafakkurini, masalalarni tahlil qilish qobiliyatini va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda hayot bilan bog'lay olishni o'rgatadi.

Natijalar. Maktab o'quvchilarini aqliy faollikni rivojlantirishda Didaktik o'yin metodi - o'quvchilarga ta'lim olishiga yordam beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadga erishish uchun, ya'ni o'tilgan o'quv materialini qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Har qanday didaktik o'yinlarni tashkil etishda muayyan maqsad, masalan, biror harakatni, biror hisoblash usulini, ya'ni ma'lum didaktik topshiriqni mustahkamlashni vazifa qilib oladi.

Masalan, "Kalkulayator bo'lamiz" o'yini orqali o'quvchilar tez hisoblashga o'rganishadi. Bu metod nafaqat o'quvchini aqliy faollikka balki tezkorlikka ham undaydi deyishimiz mumkin.

Bu metod orqali o'quvchilarni og'zaki hisoblashga ham undaydi masalan, to'rtta amallarni ishtirok ettirgan holda 20 ga 5 ni qosh undan 15 ni ayri, uni 2 ga bo'l va shu tartibda o'quvchilarga bir nechta misollar berib ularni shu orqali hisoblash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Bugungi kunda bu didaktik o'yinni Mentall arifmetika yo'nalishida ham o'quvchilar uchun juda qulay holatda o'rganilib kelinmoqda bu ham raqamli texnologiyaning rivojlangan pog'onasidan biridir.

O'quvchilarning aqliy faolligini rivojlantirishda yana bir didaktik o'yinlarda matematik poyga metodi ham o'quvchilar uchun juda ahamiyatlidir. Bu metodda o'quvchilarga bir necha misollar yoki mantiqiy masalalar beriladi.



Ular jamoa bo'lib tezkorlik bilan topishga harakat qilishadi. Bu o'yin o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlashga ham ularni bir birlariga bo'lgan hurmat, mehr oqibatlarini ham mustahkamlaydi.

Xulosa

O'qituvchilar darsni tashkil qilishi bugungi rivojlanayotgan zamonda yangi g'oyalar bilan, har bir o'quvchini faol ishtirok etishi dars davomida o'quvchilar xotira va pantanomik harakatlarini hamda aqliy faolligini ko'rsata olishini shu bilan birga bu dars shunchaki baho olish uchun emas balki butun umr xotirasida muhrlanib qoladigan dars jarayonini tashkil etishimiz lozim.

Buning uchun o'qituvchi muammoli va interfaol metodlardan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanishga yo'naltiradi.

Shu sababli, o'quvchilarni qiziqtiradigan, zamon bilan hamnafas bo'lishi uchun darsda multimediyalar, vizual hamda texnologiyalar orqali dars jarayonini tashkil etish o'quvchini aqliy faolligini rivojlantiribgina qolmasdan uni zamon bilan hamnasaf tarbiyalay oladi.

Shu orqali o'qituvchi darsga barcha o'quvchilarni jalb qiladi va ularni aqliy faolligini rivojlantira oladi. Albatta, bunday dars jarajonlarida yangi metodik yondashuvlarning afzalliklarini ahamiyatli tomonlari ham juda yaxshi natijalarni ko'rsatadi.

1. O'quvchilarning tafakkuri o'yinlar orqali rivojlantiriladi.
2. Nutq orqali so'z o'yinlari va muloqoti o'yinlar orqali nutq madaniyati oshiradi.
3. O'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalari shakllantiriladi;
4. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik munosabatlarini kuchaytiradi;
5. Diqqat-o'yin jarayonida e'tiborning barqarorligi ortadi.
6. Darslarda AKT vositalari va raqamli resurslardan keng foydalanishga imkon yaratadi.

Bu kabi yondashuv tizimli yondashuvga asoslanadi va o'quv jarayonining har bir bosqichida samarali natija ko'rsadi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida yangi metodik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan darslar an'anaviy usullarga nisbatan o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasini oshiradi.

Bundan tashqari o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni o'rganish ularni savodxonligini ham oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy faolligini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan samarali foydalanishda o'qituvchining roli ham katta ahamiyatga egadir.

Darslarni to'g'ri tanlash, maqsadni aniqlash, o'quvchilarning faolligini kuzatish va rag'batlantirishi kerak.

Shunday ekan boshlang'ich sinf o'qituvchisi darslarni didaktik o'yinlar orqali tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirova, G. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
2. Hasanov, A. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
3. Jo'rayev, N. (2019). Interfaol metodlar va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Abdullayeva, N. (2022). Kichik yoshdagi o'quvchilarda bilish faolligini oshirishning metodik asoslari. Buxoro: BDU nashriyoti.
5. Abdullayeva, N. (2023). Boshlang'ich sinf matematika ta'limida germeneytik yondashuvlar. Ilmiy maqola, "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali, №4.

